



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

ONA TILI TAQDIRI YO‘LIDAGI XAVOTIRLAR

Abdulhay SOBIROV*

Annotatsiya

“Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyat (Mirziyoyev, 2019, 1-bet)” sifatida e’zozlanmoqda, u davlat bayrog‘i, davlat gerbi, davlat madhiyasi kabi muqaddas ramzlar qatorida xalqimizni bir davlatga, bir yurtga birlashtirishda, jipslashtirishda mayoq vazifasini o‘tab kelmoqda (Davlat tilida ish yuritish, 2020, 4-bet).

Bu fikrlar hamisha bizni til borasida hushyorlikka, sezgirlikka, ona tilimizni asrab-avaylashga, uning sha’ni, obro‘si uchun murossasiz kurashga da’vat etib turadi. Aslida, “Jamiyatimizda til maslasida real holat qanday?”, “Hamyurtlarimiz ona tiliga, ayniqsa, uning davlat tili sifatidagi maqomiga qay tarzda munosabatda bo‘lishmoqda?”, “O‘zbek tilini davlat tili sifatida rivojlantirishdagi vazifalarimiz qanday bo‘lishi kerak?” degan savollar hammani qiynaydi. Mazkur savollarga javob topish bugungi kunning eng dalzarb masalalaridan sanaladi.

Ma’lumki, globallashuv jarayonlari bugun barcha davlatlar va millatlar hayotiga shiddat bilan kirib kelmoqda va ular jamiyatida mavjud bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotni tamoman o‘zgarib ketishiga sababchi bo‘lmoqda. Bu jarayonda til muhim o‘rin egallamoqda va u dunyoning barcha mintaqalarida jadal kechayotgan axborot urushida eng zo‘r qurol vazifasini o‘tamoqda. Axborot tarqatishda yetakchilik qilayotgan tillar boshqa milliy tillar rivojiga, ularning leksik jamg‘armasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

To‘g‘ri, buning ijobiy jihatlari ham bor. Milliy tillarda umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘z va tushunchalar paydo bo‘ldi. Shu bilan birga til rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lib tushayotgan holatlar ham bor. Ushbu maqolada shular haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: til, jahon tillari, milliy tillar, o‘zbek tili, ingliz tili, rus tili, globallashuv jarayonlari, so‘z o‘zlashtirish, davlat tili, ona tili, qonun, termin, terminologiya.

Concern About The Future of The Native Language

Abstract

The Uzbek language, one of the oldest and richest languages in the world, is revered by our people as a symbol of national identity and independent statehood, a priceless spiritual treasure, and a great asset" (Mirziyoyev, 2019, p. 1). Along with

* Filologiya fanlari doktori, professor. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti, sobirov-1957@mail.ru

such sacred symbols as the State Flag, State Emblem, and National Anthem, it serves as a beacon in uniting and rallying our people into a single state, a single country (Work in the Sphere of the State Language, 2020, p. 4).

These thoughts always call us to vigilance, to respect language, to preserve our native language, and to an uncompromising struggle for its honor and prestige. After all, questions like: "What is the real state of language in our society?", "How do our compatriots feel about their native language, especially its status as the state.

As we know, globalization processes are rapidly entering the lives of all countries and peoples, radically changing the political, economic, and spiritual life of their societies. Language plays a vital role in this process and serves as the best weapon in the information war raging in all regions of the world. Languages that occupy leading positions in the dissemination of information have a significant impact on the development of other national languages and their vocabulary.

However, this does have positive aspects. National languages have acquired words and concepts with universal significance. At the same time, there are also situations that seriously impede language development. This article is devoted to these issues.

Keywords: language, world languages, national languages, Uzbek, English, Russian, globalization processes, word acquisition, state language, native language, law, term, terminology.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga bu yil 36 yil to'ldi. Ko'hna tarix oldida bu yillar unchalik kattaga o'xshamas, lekin millat qadri, millat dardi, millat orzulari oldida o'tgan 36 yil asrlar bilan tenglashadi. Shu yillar mobaynida o'zbek xalqi o'z mustaqilligiga ega bo'ldi, katta mashaqqat bilan, mislsiz bardosh va toqat bilan asta-sekin o'z qadriyatlarini tikladi. O'zbekiston bugun dunyo xalqlari orasida o'z o'rnini topdi. O'zbek tili davlatimiz ramzlaridan biri sifatida o'tgan yillar davomida jamiyatimiz bilan birga rivojlandi va o'z maqeyini mustahkamlab bordi.

O'tgan davrda va hozirda ham, mening nazarimda, siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga qaraganda xalqimizni eng ko'p to'lqinlantirgan, eng ko'p bahs va munozaralarga sababchi bo'lgan muammolardan birini ona tilimiz taqdiri, uning davlat tili sifatida mamlakatimiz hamda xalqaro maydonlardagi o'zni masalasi tashkil etsa kerak.

Hozirda dunyo saralanmoqda. Taraqqiyparvar, yangilikka intiluvchi davlatlar va millatlar toboro bir-birlari bilan kelishishga, birlashishga intilmoqda.

Bu holat odamni quvontiradi. Davlatlar va millatlar o'rtasidagi integratsiyalar ularning tillari rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'rtada barcha tillar uchun umumiy bo'lgan yangi so'z va tushunchalar paydo bo'ldi. Shu ma'noda o'zbek tilida umuminsoniy xarakterga ega bo'lgan *akkaunt, terminal, tender, plastik karta, market,*

minimarket, makromarket, gipermarket, supermarket, bakalavr, brauzer, briffing, barter, блогер, хакер, birja, domen, identifikatsiya, login, sayt, chat kabi soʻzlarning faol qoʻllanayotganiga eʼtiroz bildirmaslik kerak.

Balki mazkur leksik birliklar tor doiralarda eʼtiborsiz qoʻllanaverar, davr taqozosi bilan ular ichidan saralanganlari faol leksikaga oʻz-oʻzidan oʻtar. Masalan, bu jarayon natijasida milliy tillarda azaldan mavjud boʻlgan soʻzlar semantikasiga yangi maʼno siljishlari sodir boʻlmoqda. Masalan, toʻlov-pul tizimining plastik kartalarga oʻtkazilishi munosabati bilan tilimizdagi *“solmoq”, “ochmoq”, “berkilib qolmoq”, “toʻxtatmoq”, “yubormoq”, “yechmoq”* singari leksik birliklar maʼnosiga yangi maʼno ottenkalari kelib qoʻshildi. Bunday hodisa bir yoki ikkita soʻz doirasida emas, balki yuzlab soʻzlar misolida sodir boʻldi va buni har jihatdan qoʻllab-quvvatlamok kerak.

Ikkinchi tomondan oʻzbek tilining ichki imkoniyatlari kengayib, xorijiy soʻzlarni kalkalash, toʻliq va yarim kalkalash jarayonlari kuchaydi. Masalan, tadqiqotchi O.Abduboyeva birgina *“elektron”* leksemasi ishtirokida hosil qilingan yuzga yaqin leksik birliklarni qayd etgan: *elektron kutubxona, elektron eʼlonlar taxtasi, elektron xarita, elektron moʻyqalam, elektron kitob, elektron tijorat, elektron maslahat, elektron naqd pul, elektron ochiqxat, elektron qoʻlqop, elektron siyosat, elektron pochta tarqatmasi, yetkazib beruvchilar elektron tarmogʻi, elektron jadval, elektron aravacha, hammabop elektron savdo maydonchasi, elektron savdo, elektron raqamli imzo (ERI), elektron iqtisodiyot, elektron nashriyot, elektron hukumat, dasturiy taʼminotni elektron tarqatish, elektron taʼminot, elektron hamjamiyat, elektron sayyohlik agentligi, elektron pul, elektron xaridlar, elektron soliqlar, oʻz qoʻli bilan qoʻyilgan imzoning elektron analogi, elektron pul oʻtkazish, elektron hujjat, elektron hujjat aylanishi, elektron hamyon, elektron doʻkon, elektron pul vositalarining elektron almashuvi, elektron toʻlov, elektron vositachi, elektron pochta manzili, elektron pochta qutisi, elektron bozor, elektron matn, xizmat, elektron yorliq* va h.k. (Abduboyeva, 2025, 105-bet).

Zamon shiddati tez. Oʻylab oʻtirguncha vaqt oʻtib ketyapti. Qaysarlik bilan bir yerda turib olish faqat davlat va millat zarariga ishlayapti. Shu bois, har sohada boʻlgani kabi til sohasida ham Oʻzbekiston oʻz yoʻliga, oʻz usullariga, oʻz yondashuvlariga ega boʻlishi lozim. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-oktabrdagi “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-son hamda 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6084-son Farmonlari bilan oʻzbek tilini mamlakatimiz va chet ellardagi obroʻsini yuqori pagʻonalarga koʻtardi. Uning oʻzi bu borada ibrat koʻrsatib BMT va boshqa xalqaro minbarlarda turib oʻzbek tilida ravon nutq soʻzladi. Bu juda katta olamshumul voqea sanaladi.

Ulkan yutuqlarni e'tirof etgan holda, mening tilshunos sifatida o'zbek tilining kelajagi yo'lida bir qancha xavotirlarim bor.

1. O'zbek tilining huquqiy-me'yoriy qoliplari, uni rivojlantirishning mukammal konsepsiyasi davlatimiz tomonidan yuqoridagi Farmonlar va tegishli Qarorlarda yaratib berildi. Hamma gap endi uning ijrosida qoldi. Konsepsiya asosida 2020-yildan buyon rejadagi ishlar qadam-baqadam amalga oshirilib kelinmoqda, hammasi davlat nazoratida. Lekin, xavotir bu jarayonlarning xalq tomonidan his qilinmayotganiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi o'zgarmoqda, unga mos ravishda "Ona tili" darsliklarining yangi avlodlari yaratilmoqda, ko'plab sohaviy lug'atlar chop etilmoqda, ta'lim dunyoning bironta davlatida bo'lmagan yettita tilda olib borilmoqda, tadbirlar, anjumanlar, uchrashuvlar, OAVlarida bajarilayotgan ishlarning son-sanog'i yo'q. Oddiy xalqning til tuyg'usi esa uyg'onmayapti. Xalqimizning o'z ona tilidan faxrlanish, iftixor qilish tuyg'ularini kuchaytirishimiz, alanga oldirishimiz kerak. Buning uchun muntazam ravishda targ'ibot, tashqiqot ishlarini olib borishimiz, radio-televideniya, OAVlarida berilayotgan ayrim maishiy, xashaki mavzulardan qochib, xalqni o'ylantiradigan, uning tafakkurini kuchaytiradigan o'rxun-enasoy bitiktoshlari, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Turdi Farog'iy, Ogahiy, jadid bobolarimiz, zamondosh ijodkorlarimizning asarlaridan ona tilimizni alqaydigan, uning sha'nini ko'kka ko'taradigan matnlarni barcha tildoshlarimizning yurak-yuragiga joylashimiz kerak.

Shundagina xalqimiz *Dudek, Panino, Diet kafe, Zavodskaya, Taco Food, Norin hause, Rakatskiy dvorik, Art Rakat, Grant Osiyo, Villa Kasablanka, Hotel Papillon* va h.k. nomlar noto'g'ri qo'yilganini anglab yetadi.

To'g'risini aytganda, xalqimizning ayrim toifalari o'zbek tilining davlat tili sifatida mamlakatimiz ichida va chet ellarda qaror topishiga nisbatan bepisand, loqayd. Eng birinchi galdagi vazifamiz ulardagi mana shu loqaydlik, bepisandlik tuyg'ulariga barham berishga borib taqaladi. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan barcha aholi o'zbek tili kelajagi ustida birdek bosh qotiradigan bo'lsa, hamma ishlarimiz izga tushib ketadi.

O'zbek dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan xalqlardan biri, mehnatkash, zahmatkash, bolajon millat, biroq ona tili masalasida o'ta jo'n, innovatsiyalardan qochadi. Bu esa ikkinchi kechiktirib bo'lmaydigan vazifamizga taalluqli.

2. Biz ulkan axborotlar ichida yashayapmiz. Bu axborotlarni "hazm qilish", o'zlashtirish, ularga ishlov berish, ulardan o'z faoliyatimizda unumli foydalanish kelajagimizning bosh garovidir. Ilg'or mamlakatlar va davlatlar allaqachon elektron ish yuritish uslubiga o'tib ketdi va buning natijasida o'z tillarining amaliy jihatdan o'ta qulay, ishchan variantini yaratib olishdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha tarqaladigan xabarlar miqdori har yili 30 foizga oshib bormoqda va har bir insonga $2,5 \cdot 10^8$ bayt ma'lumotlar to'g'ri kelmoqda. Yer yuzida istiqomat qilayotgan 7 milliarddan ortiq insonlarning 6 milliard uyali telefondan foydalanadi. Ularning hammasi televizor, 2 milliard kompyuter, 2,5 milliard ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi (<https://ru.wikipedia.org/wiki>).

Bu o'yantiradigan fakt. Dunyodagi ilg'or mamlakatlarda insonlar bir-biri bilan yuzma-yuz turib muloqot qilishdan ko'ra masofadan turib gaplashishga, ajumanlar, yig'ilishlar qilishga, suhbatlashishga, hatto diydorlashishga o'tib ketdi.

Biz mazmunga nisbatan shaklga ko'proq e'tibor berayotganga o'xshaymiz.

Talabalarimizdan biri shunday savol bilan murojaat etib qoldi: "Ingliz va ruslar yozuvda hech qachon xato qilmaydilar. Nega shunday?" Bu ularning o'z tillarini kompyuter tiliga aylantirganlariga, rus va ingliz tillarining matn tahririni yaratganlariga borib taqaladi. Agar e'tibor berilsa, ruscha va inglizcha matnlar xato yozilsa, o'sha so'zda belgi paydo bo'ladi va to xatolik to'g'rilanmaguncha, shu holda turaveradi. O'zbek tilida bu jarayon oxiriga yetkazilgani yo'q. Holbuki, davlatimiz hamma narsani oldindan ko'rib, bilib turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 60-son Farmoni, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarorida bu borada amalga oshirilgan ishlar belgilab berilgan.

Elektron hukumatga o'tish, o'zbek tilini kompyuter tiliga aylantirish, virtual muloqotlarni jonlantirish, tilimizning butun boyligini elektron shaklga o'tkazish oldimizda turgan kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarimizdan sanaladi.

3. Davlat tilini rivojlantirish borasida hammaga birdek talabni qo'yyapmiz. Zamon esa o'z yo'lida, o'z qonunlariga bo'ysungan holda kechmoqda. Oddiy xalqdan ham, akademikdan ham, professor-o'qituvchilar-u talabalardan ham, ishchi-dehqonlardan ham bir xil bo'lishni talab qilyapmiz. Ularning xos holatlarini e'tiborga olmayapmiz. Bugun aniq fanlar, fizika, matematika, kimyo, biologiya, tibbiyot sohalarining takomilini jahon integratsiyasiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Ular o'z ichida yangidan yangi yo'nalishlarga ajralib ketmoqda. Hozirda o'zbek ilm-fanida ham nanofizika, nanotexnologiya, robototexnika, bionika, gen injeneriyasi, biofizika, imlmetriya, neyroiqtisodiyot, neyrologiya singari yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi va o'z termonologik tizimiga ega bo'lib bormoqda. Yangi terminologik sohalarga minglab yangi terminlar kelib qo'shildi va ular o'zbek tili leksikasidan o'rin oldi. Ba'zilar o'z holida: *parol, kontent, kreker, onlayn, oflayn, xaker, kursor, login, chat, overlay, paket, peydjing, trakt, petebayt, ping, piksel, plagin, gigabayt, terabayt*,

exabayt, kross-brauzer; ba'zilar tarjima qilindi: *dastur, dasturlash, sichqoncha*; ba'zilar kalkalandi *korporativ tarmoq, elektron xizmat, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, elektron imzo, kiberjinoyat* kabi.

Biz ularga barcha terminlarni tarjima qilish yoki kalkalash talabini qo'ya olmaymiz.

V.P.Danilenkoning fikricha: "Jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi (Danilenko, 1977, 248-bet).

Masalan, *buluts* termini. *Buluts* (Bluetooth) inglizcha: *blue* va *tooth* so'zlaridan yasalgan bo'lib, o'zbek tiliga "ko'k tish" degan ma'noni anglatadi. Bu nom Daniya va Norvegiya qiroli Xarold I sharafiga qo'yilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, qiroli ko'k rangni haddan tashqari yaxshi ko'rgan va tishlarini ham shu rangga bo'yab yurgan. Uni Ko'ktishli deb ham atashgan. Xarold Ko'ktishli Skandinaviya hududlarini birlashtirgan, Daniya va Norvegiyani yagona qirollikka aylantirgan. Qirolning bu harakati axborotlarni simsiz uzatish texnologiyasi sanalgan *buluts* termini uchun asos vazifasini o'tagan va u mobil dunyoni birlashtirish maqsadini o'zida aks ettiradi (<https://mcgrp.ru/article/4880-istoriya-proishojdeniya-nazvaniya-blyutuz>).

Demak, *buluts* terminini tarjima qilishning hojati yo'q. Davlat tiliga rioya qilishda ham fan va texnika sohasi vakillariga individual talablarni qo'yishimizga to'g'ri keladi.

4. Eng muhimi, O'zbekiston ko'pmillatli davlat. Unda 130 dan ortiq xalqlar va millatlar istiqomat qiladi. Boshqa tillarni ham hurmat qilgan holda ulardan o'z hududimizda, mustaqil O'zbekistonda davlat tilida ish yuritishni talab qilishimiz ayb emas. Afsuski, biz o'z tilimizni qo'yib ular tilida gaplashishga harakat qilamiz. Bu ona tilimiz qadrini iki til uchrashgan paytda pastga qo'yish bilan baravar.

5. Keyingi yillarda tilshunoslikda lingvistik imperializm degan tushuncha paydo bo'lib qoldi. Bu jarayon yot til elementlarining, xususan, bugun dunyo tillari "poygasi"da yetkachilik qilayotgan ingliz tiliga oid so'z va tushunchalarning bo'lar-bo'lmasga o'zbek tilida ishlatilishiga bog'liqdir.

Soha tadqiqotchisi O.Shukurovning ta'kidlashicha, Internetda o'zlashma so'zlarning 395 ta tilda ishlangan bazasi (The World Loanword Database) mavjud. Unga ko'ra mazkur tillarning 369 tasi so'z beruvchi til, 41tasi so'z o'zlashtiruvchi til, 15 tasi har ikkala guruhga mansub tillar sanaladi (Shukurov, 2022, 14).

Gold, hause, chicken, bildingg, guruup, hotel, grand, fish, *burger*, *Big pitssa*, *xot-dog* kabi leksik birliklarni o'zbek tiliga hali o'zlashmagan holda qo'llashda davom etyapmiz. Bu ayanchli holat.

6. Eng katta hurmatsizlik so'zlarni noto'g'ri, xato yozishimizda zuhr bermoqda. Bu quyidagilarda ko'rinadi:

a) soʻzlarni xato yozishda: *Timur* (Temur), *Shoxon* (Shohona), *Mazza* (Maza), *Dilxush* (Dilxush), *Navruz* (Navroʻz), *Firuz* (Feruz), *Uzbek* (Oʻzbek), *Shuxrat* (Shuhrat) kabi; b) izofani notoʻgʻri qoʻllashda: *Restoran Shoxon* (Shohona restorani), *NUR kafe* (NUR kafesi), *Choyxona Hamid* (Hamid choyxonasi) va h.k.; chiziqli va nuqtani xato ishlatishda: *El-Aziz Food*, *Sim-sim*, *La-ziyofat*, *Kuk-su №1*, *Uz.bek restoran*; s) ruscha oʻzlashmagan soʻzlarni nooʻrin qoʻllashda: *Granat* (Anor), *Siniy mostik* (Moviy koʻprikcha), *Tri korolya* (Uch qirol), *Odnoklassniki* (Sinfdozlar), *Ugolog surer Market*, *Creative*, *Lavash sentr*, *Tabaka Centre* va h.k.; d) inglizcha leksik birliklar ishtirokida sunʼiy soʻz birikmasi hosil qilishda: *Firuz plaza*, *Burger 55*, *Sirdaryo Cinema*, *Timur Food*, *Uchrashuv best*, *Choʻntak burger*, *Mebel sity*, *Ulugʻobod Tsentr*, *Sadaf hotel*; Ixtiyor DUNYO Market, Giper Market Bahor, Sher kafe bar va h.k. ye) ingliz tilidagi tayyor qoʻshma soʻzlarni ishlatishda: *Green Hause*, *Gar wash*, *ICE RICN*, *LUX PETROL My Food*, *Park Food*, *Moda Food* va h.k.

Bunday holatlar oʻzbekcha qoliplarga mutlaqo tushmaydi.

Umuman olganda, til hammamizniki va u barchaga beminnat va teng nur sochadi. Soyaga qochib, unga tosh otish yaxshilikka olib bormaydi. Buning oʻrniga hamma tillarga va oʻzini anglagan har bir oʻzbek uchun tillarning gultoji sanalgan oʻzbek tiliga hurmat-eʼtiborda boʻlish bizning shu til oldidagi muqaddas va chinakam farzandlik burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi//“*Xalq soʻzi*”, 2019-yil 22-oktabr soni.

Abduboeva O. (2025). *Oʻzbek tili axborot kommunikatsiya texnologiya tadqiqi*: Filol. fanlari dokt. ... dissertatsiya. Urganch.

Даниленко В.П. (1977). *Русская терминология. Опыт лингвистического описания*. Москва.

Davlat tilida ish yuritish. (2020). Amaliy qoʻllanma. Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti.

Shukurov O. (2002). *Oʻzbek tili zamonaviy oʻzlashmalarining evolyusiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (Mustaqillik davri)*: Filol. fanlari dokt. ... dissertatsiya. Qarshi.

<https://ru.wikipedia.org/wiki>.